

## BOSHLANG'ICH MATEMATIKA DARSLARIDAN TASHQARI TO'GARAK MASHG'ULOTLSRINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISHDA OID DARS MASHG'ULOTLARIDAN NAMUNA

**Tolipov Rustamjon M.** Qo'qon DPI o'qituvchisi

**Abdumalikova G.N** Qo'qon DPI talabasi

**Muhammadvaliyeva R.** Qo'qon DPI talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich matematika darslaridan tashqari to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish oid mashg'ulotlar namunasi namunalar keltirilgan bo'lib matematik o'yinlar, mantiqiy savollar, arifmetik jumboqlar haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** buyuk bobo kolonlarimiz hayoti va ijodi topqirlik, ziyraklik, diqqat talab qiluvchi masalalarni yechish, kichik-kichik qiziqarli savollar.

Maktabda matematikadan sinfdan tashqari ishning asosiy formasi matematika to'garagidir. Tajriba kichik yoshdagi o'quvchilar bilan 1-sinfdan (II-chorakdan) boshlab to'garak mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish mumkinligini ko'rsatmoqda. Ammo odatda bu ishni II-IV sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladi. O'qituvchi to'garak a'zolari bilan haftada bir marta o'tkaziladigan mashg'ulotlarni oldindan rejalashtiradi. To'garak mashg'ulotlarini 2-sinflarda 30-35 minut, 3-4-sinflarda 35-40 minut davomiyligida o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Matematik to'garak ishini rejalashtirishda shuni hisobga olish kerakki, alohida olingan mashg'ulot qo'yilgan masalalarni to'la hal qilmaydi. Hamma rejalashtirilgan mashg'ulotlarning o'rganilishi nazarda tutilgan savollarning to'la ishlanmasi bilan birgalikdagi oldindan o'ylab qo'yilgan sistemasi zarur.

Shu munosabat bilan yarim yilga yoki birdaniga bir yilga mo'ljallangan reja tuzish kerak. Bunda butun materialni shunday taqsimlash lozimki, u shu vaqtda darsda o'rganilayotgan mavzular bilan bog'lik bo'lsin. Mashg'ulotlarni o'tkazishning boshida rejada o'zgarishlar, to'ldirishlar kiritiladi. Mavzuni butun o'rganishni qiyinroq masalalarni yechish, shuningdek topqirlik, ziyraklik, diqqat talab qiluvchi masalalarni yechish, kichik-kichik qiziqarli savollarni almashlab borish foydalidir.

Boshlang'ich sinflarda quyidagi mashg'ulotlarni o'tkazish mumkin:

### **1 - mashg'ulot**

1. O'zbek matematiklaridan Al-Xorazmiyning bolaligi va sonlarni qanday topganligi haqida suhbat.

2. Zinama-zina o'yini .

3. Mantiqiy masalalar

a).4 ta 2 dan har xil matematik amallardan 9 chiqarib bering.

**Javob:22:2-2**

b). Ot o'z bo'yniga bog'langan qo'ng'iroqning ovozini eshitmaslik uchun necha km/soat tezlikda chopishi kerak?

**Javob:0 km/soat tezlikda**

**2 - mashg'ulot**

1.Geometrik figuralarni tuzilishi va chizilishi haqida (qog'oz va kartondan yasash).

2. Tartib bilan sanash o'yini.

3. Mantiqiy masalalar

a)Oqila qog'ozga 86 sonini yozib, dugonasidan "ushbu sonni qog'ozda hech narsani o'chirmasdan, bo'yamasdan va chizmasdan 12 ga oshira olasanmi" deb so'radi. Dugonasi buni eplay oldi. Qanday qilib?

**Qog'ozni teskari qilish orqali, bunda  $86 > 98$  ga aylanadi**

**3 - mashg'ulot**

1. Ulug'bekning bolaligi va matematikaga oid ishlari.

2. Qiziqarli masalalar

3.Mantiqiy masalalar

a) Ikki ota va ikki o'g'il yo'lda ketayotib, 3 ta olma topib olishdi. Ularning har biriga bittadan olma tegdi. Bu qanday sodir bo'ldi?

**Ular aslida uch kishi: bola, ota va bobo edi.**

b). Bir oilada 5 qiz bor ekan. 1- kitob o'qiyapti, 2- shaxmat o'ynayapti, 3- ovqat yeyapti, 4- yig'ishtiryapti, 5- nima qilyapti?

**Shaxmat o'ynayapti.**

**4 - mashg'ulot**

1.Faraz qilish usuli bilan yechiladigan masalalar.

2. Tarozi bilan ishlash.

3.Mantiqiy masalalar

a)Bir kunda bitta tug'ruqxonada ikki o'g'il farzand dunyoga keldi. Ularning ota-onalari bitta ko'p qavatli uyda yashashardi. Ikkita bola bitta bog'chaga, bitta maktabga borishdi, bir sinfda o'qishdi. Lekin hech qachon bir-birini ko'rmadi. Bu qanday qilib bo'lishi mumkin?

**Bolalarning ko'zi ojiz edi.**

**5 - mashg'ulot**

1.«Oilada matematika» masalasini yechish.

2. Archani bezatish o'yini.

3 Mantiqiy masalalar

a) Qafasda 3 ta quyon bor edi. Uchta qizcha ularga bittadan quyon berishlarini so'rashdi. Ularga so'rganlaridek bittadan quyon berildi. Lekin baribir qafasda bitta quyon qoldi. Buni qanday tushuntirish mumkin?

**Qizchalarning biriga quyon qafasi bilan birga berilgan.**

**6 - mashg'ulot**

1. Umar hayyom hayoti haqida suhbat.
2. Kalendar tuza olasizmi.
3. Mantiqiy masalalar

a) Bir kuni chol ikki nabirasi bilan yo'lga chiqibdi. Ular yo'lda ketayotib katta daryoga duch kelibdi. Daryoda qayiq bor ekan. Qayiq esa faqatgina 100 kilogram yukni ko'tara olarkan. Chol o'zi 100 kilo ekan. Nabiralar esa 50 kilodan ekan. Ular daryoni u betiga o'tishlari shart. Qanday qilib o'tib olish mumkin?

**Dastlab nabiralar o'tadi, ulardan biri tushib qolib biri qaytadi. Bu safar bobo narigi betga o'tadi va u yerdagi nabira qayiqqa o'tirib bu tarafda qolgan nabira bilan birga o'tadi.**

**7 - mashg'ulot**

1. Mitti va ulkan sonlar haqida suhbat.
2. Sonlar piramida o'yini.
3. Mantiqiy masalalar

a) Bir kishi sochini oldirib bo'lib qancha bo'ladi dedi. Usta esa g'aladonda necha so'm bo'lsa shuncha tashlab 2000 so'm oling dedi. Keyingi odamga ham shu qaytarildi va 3- odam ham g'aladonda qancha bo'lsa shuncha pul tashlab 2000 so'm olib chiqib ketdi va g'aladonda pul tugadi. Dastlab g'aladonda necha so'm bor bo'lgan?

**1750 bor bo'lgan. 1- kishi shuncha tashlasa 3500 bo'ladi, 2000 qaytarib olsa 1500 qoladi. 2- kishi 1500 tashlasa 3000 bo'ladi 2000 qaytarib olsa 1000 qoladi. 3- kishi 1000 tashlasa 2000 bo'ladi, 2000 qaytarib olsa pul qolmaydi.**

**8 - mashg'ulot**

1. Abu Ali Ibn sinoning ijodi.
2. Matematik kravord.
3. Mantiqiy masalalar

a) 3 ta archa o'sardi. Har birida 7 tadan shox mavjud. Har bir shoxda 3 tadan olma meva bor. Barcha daraxtning jami mevalari soni nechta bo'ladi?

**Archada olma nima qilsin.**

b) Erkak kishi o'zining bevasining singlisiga uylanishi mumkinmi?

**Yo'q, o'zi vafot etgan kishi hech kimga uylana olmaydi.**

b). Mahmudning 10 ta qo'yi bor edi. 9 tadan boshqa hamma qo'ylari o'lib qoldi. Mahmudning nechta qo'yi qoldi?

**9 - mashg'ulot**

1. Maktab hayoti bilan bog'langan masalalarni yechish.
2. Ko'rgazmali qurollar yordamida geometrik figuralar o'rganish.
3. Mantiqiy masalalar

a) O'rdaklar qator bo'lib suv ichgani ketishayotgan edi. Ulardan biri oldinga qarab 7 ta boshni ortiga qarab 12 ta panjani ko'rdi. O'rdaklar nechta?

**14 ta. 7 bosh 7 o'rdak, 12 panja 6 o'rdak, qaragan o'rdak bilan xisoblanganda shuncha chiqadi.**

### **10 - mashg'ulot**

1. Gugurt cho'plari bilan ishlash. 2. O'YLA –IZLA -TOP
3. Mantiqiy masalalar a) 4 ta 4 sonidan turli matematik (qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish) amallarini bajarib 20 sonini chiqaring.

$((4:4)+4)*4$  AVTOBUSDA 15 YO'LOVCHI KETAYOTGAN EDI. BIRINCHI BEKATDA 3 YO'LOVCHI CHIQDI, KEYINGI BEKATDA 2 YO'LOVCHI TUSHIB QOLIB, 4 YO'LOVCHI CHIQDI, KEYINGI BEKATDA 4 YO'LOVCHI TUSHIB 7 YO'LOVCHI CHIQDI, KEYINGI BEKATDA ESA 1 YO'LOVCHI TUSHIB 6 YO'LOVCHI CHIQDI. AVTOBUS NECHA BEKAT YURDI? 4 BEKAT. Yuqoridagi mashg'ulotlarni o'tkazishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan masalalar savol va o'yinlar hamda qiziqarli misol va jumboqlardan ayrimlarini sanab o'taylik.

### **Arimetik jumboqlar**

1. 5 ta va 3 ta raqamdan foydalanib 30 sonini yozing  $30=33+3-3:3$
2. 5 ta 9 raqami bilan va arifmetik amal ishoralari yordamida 10 sonini yozing.  $10=99:9-9:9$
3. 4 ta 2 dan har xil matematik amallardan 9 chiqarib bering.

**Javob:22:2-2**

5.Raqamlar yig'indisi 3 dan oshmaydigan 3 xil raqamdan iborat sonni yozing.

$$0+1+2=3$$

6.Qanday ketma-ket to'rtta sonning yig'indisi 62 ga teng.

$$14+15+16+17=62$$

7.Qanday to'rtta sonning yig'indisi va ko'paytmasi 8 ga teng?

$$1+1+2+4=1*1*2*4$$

Sonlarni rim raqamlari yordamida yozing.

1.X.Olimjon MCMIX yilda tug'ilib, MCMXLIV yilda vafot etgan.(1909-1944)

2.A.Navoyiy MCDXLI (1441) yilda tug'ilib,MDI(1501)yilda vafot etgan.

3.Oybek MCMV(1905) yilda tug'ilib, MCMLXVIII(1968) yilda vafot etgan.

Bunda M-1000,C-100,D-5000,L-50 ga teng.MDCCLIX-1759,MCMXCV-1995.

### Adabiyotlar ro'yxati.

1. Mamadalievich, Y. M., & Mamasolievich, T. R. (2022). THE NEWSPAPER "SADOI FERGHANA" IS THE NEWSPAPER OF THE FERGHANA REGION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 1236-1240.

2. Tolipov, R., & Yusupov, M. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE FORM OF EDUCATION IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF THE LESSON. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 1633-1637.

3. Tolipov, R. (2022). Characteristics of the levels of formation of the control action in younger schoolchildren. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(11), 9299.

4. Yusupov, M. M. (2022). FEATURES OF THE ORGANIZATION AND CONDUCT OF EDUCATIONAL PRACTICE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(06), 195-200.

5. Normatov, A. A., Tolipov, R. M., & Musayeva, S. H. Q. (2022). МАКТАБЛАРДА МАТЕМАТИКА ФАНИНИ О 'QITISHNING DOLZARB MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 1068-1075.

6. Толипов, Р. М. (2023, February). СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ ИНДУКЦИИ, ДЕДУКЦИИ И АНАЛОГИИ ПРИ РЕШЕНИИ ПРИМЕРОВ И ЗАДАЧ В МЛАДШИХ КЛАССАХ. In *E Global Congress (Vol. 2, pp. 36-46)*.

7. Mamasoliyevich, T. R. (2023). BOSHLANG 'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O 'YINLAR ORQALI DARSLARNI TASHKIL ETISH DARS SAMARADORLIGINI MUHIM OMILI. *Ustozlar uchun*, 19(2), 195-201.

8. Mamasolievich, T. R. (2023). PECULIARITIES AND TYPES OF ORGANIZING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN MATHEMATICS IN ELEMENTARY GRADES. *Conferencea*, 102-107.

9. Yigitaliyeva, S. (2023). KOGNITIV TILSHUNOSLIK VA UNDA KONSEPT TUSHUNCHASINING IFODALANISH. *Scienceweb academic papers collection*.

10. Yigitaliyeva, S. (2022). O'zbek tilida yaxshilik konsepti va uning xalq maqollarida ifodalanish xususiyatlari. *Qo'qon DPI. Ilmiy habarlar*.

11.Yigitaliyeva, S. (2021). Linguistic analysis the concept of GOODNESS. *Scienceweb academic papers collection*.

12.Isog'aliyevna, Y. S. (2023). Boshlang'ich sinflarda mustaqil so'z turkumlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati. *Conferencea*, 16-21.

13.Yigitaliyeva, S. (2023). TUSHUNCHA KOGNITIV LINGVISTIKANING ASOSIY BIRLIGI SIFATIDA. *XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI-6/4-2023*.

14.Yigitaliyeva, S., & Yo'ldoshboyeva, O. (2023). OLIY TALIMDA ONA TILI FANINI O'QITISHNING NAZARIY MASALALARI. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(8), 41-44.

15.Yigitaliyeva, S. (2022). O'zbek tilida yaxshilik konsepti va uning xalq maqollarida ifodalanish xususiyatlari. *Qo'qon DPI. Ilmiy habarlar*.

Isog'aliyevna, Y. S. (2023). Boshlang'ich sinflarda mustaqil so'z turkumlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati. *Conferencea*, 16-21.

16.Umarova, N. R., & Isog, S. Y. ali qizi.(2021) CONCEPT AS A BASIC OF COGNITIVE LINGUISTICS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE*. *Учредители Теоретическая и прикладная наука* (9), 701-704

17.Rokhataliyeva, A. N. (2022). Teaching of mathematics on the basis of advanced international experiences. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(7), 50-55.

18.Rokhataliyevna, A. N., & Kadiralievich, A. A. (2022). Didactic foundations of improving the creative activity of future mathematics teachers by means of information and communication technologies. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*, 3(7), 1-5.

19.Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari” moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma.:– Toshkent 2015,40 bet Abdullaeva, N. R. Matematikani o'qitishda o'quvchilarni kreativ faoliyatini rivojlantirishning didaktik tamoyillari. “*JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*” VOLUME 1, ISSUE 6, 119.

20.Abdullayev, A. Q., & Abdullayeva, N. R. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA KREATIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH. *МУ АЛЛИМ СЕЎМ ЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИ*, 99.

21.Normatov, A. (2023). МАТЕМАТИКА DARSLARIDA МАТЕМАТИК MASALANING AHAMIYATI VA O'RNI HAQIDA. *Ustozlar uchun*, 19(2), 81-89.12

22. Normatov, A. (2023, June). SOME APPLICATIONS OF THE DEFINITE INTEGRAL. In *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (Vol. 2, No. 6, pp. 260-263).

23. Норматов, А. А. (2023). ПОМОЩЬ УЧЕНИКАМ ПРИ РЕШЕНИИ НЕКОТОРЫХ ЗАДАЧ. *Conferencea*, 76-82.

24. Madina Hikmatuloevna Marupova, Aziz Saidolimovich Kubaev, & Alisher Isomidinovich Khazratov. (2022). THE ESSENTIAL ROLE OF DIAGNOSTIC AND TREATMENT METHODS FOR PATIENTS WITH TEMPOROMANDIBULAR JOINT PAIN DYSFUNCTION SYNDROME. *World Bulletin of Public Health*, 10, 141-142. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbph/article/view/1015>

25. Makhramovna, B. D. (2023). Methodical Views of Nizamiddin Mahmudov. *World of Science: Journal on Modern Research Methodologies*, 2(3), 149-154.

